



**MA'MURIY JAVOBGARLIKKA TORTISHDA MUDDATLAR:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**
Babaxanov Hamdam Qadamovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrası o'qituvchisi, mayor*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20563656>

Annotatsiya: Maqolada jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki tugatilgan ishlar bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortishning bir oylik muddati qonunchilik va amaliyot tizimida tahlil qilingan. Muddat o'tishi sababli ishlarning tugatilishi hamda jazoning muqarrarlighi prinsipi buzilishi bilan bog'liq tashkiliy-protsessual muammolar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy javobgarlik, javobgarlikning muqarrarlighi, ma'muriy jazo muddatlari, tashkiliy-protsessual muddatlar, jinoyat ishini rad etish, MJtKning 36 va 271-moddalari, jabrlanuvchi huquqlari.

Аннотация: статье анализируется одномесячный срок привлечения к административной ответственности по делам, по которым отказано в возбуждении уголовного дела либо уголовное дело прекращено, в системе законодательства и правоприменительной практики. Раскрываются организационно-процессуальные проблемы, связанные с прекращением дел вследствие истечения сроков, а также их влияние на нарушение принципа неотвратимости наказания.

Ключевые слова: административная ответственность, неотвратимость наказания, сроки административных взысканий, организационно-процессуальные сроки, отказ в возбуждении уголовного дела, статьи 36 и 271 КоАП, права потерпевшего.

Abstract: The article analyzes the one-month limitation period for bringing

Contact: 99 826 99 56



individuals to administrative liability in cases where criminal proceedings have been refused or terminated, within the framework of legislation and law enforcement practice. It examines organizational and procedural issues arising from case termination due to the expiration of statutory time limits, as well as their impact on the principle of the inevitability of punishment.

Keywords: administrative liability; inevitability of punishment; limitation periods for administrative sanctions; organizational and procedural time limits; refusal to initiate criminal proceedings; Articles 36 and 271 of the Code of Administrative Liability; victim rights.

Huquqiy davlatda qonun ustuvorligi normativ hujjatlar soni bilan emas, balki ularning amaliyotda samarali va izchil qo'llanilishi bilan baholanadi. Ayniqsa, ma'muriy javobgarlik instituti kundalik huquqni qo'llash amaliyotida muhim o'rin tutadi. Shu sabab ma'muriy javobgarlik choralarining o'z vaqtida va adolatli qo'llanilishi fuqarolarning huquq tizimiga bo'lgan ishonchiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 3-moddasida belgilangan qonuniylik, tenglik, insonparvarlik, odillik hamda javobgarlikning muqarrarliligi prinsiplari amaliyotda to'liq ta'minlanishi zarur. Biroq MJtKning 36-moddasi va 271-moddasi 7-bandi o'rtasidagi protsessual muddatlar amaliyotda ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki tugatilgan kundan boshlab ma'muriy javobgarlikka tortish uchun bir oylik muddat belgilangan.

Amaliyotda esa ushbu muddat ko'p hollarda yetarli bo'lmayapti. Ishni sudga yuborish, taraflarni belgilangan vaqtda sud majlisiga jalb etish hamda ishni mazmunan ko'rib chiqib yakunlash bilan bog'liq amaliy qiyinchiliklar sabab ayrim ishlarni qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish murakkablashmoqda.

2025-yilda profilaktika inspektorlari tomonidan 2,5 milliondan ortiq murojaat ko'rib chiqilib, 470 mingdan ziyod materiallar sudlarga yuborilgan [2].





Shu yilning o'zida MJtKning 271-moddasiga asosan 132 773 ta ish tugatilgan bo'lib, shundan 9 698 tasi muddat o'tib ketgani sababli yakunlangan. Bu esa javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini amalda ta'minlash bilan bog'liq tizimli muammo mavjudligini ko'rsatadi.

Shu sababli, maqolada MJtKning 36-moddasi va 271-moddasi 7-bandining amaliy qo'llanilishi, mavjud statistika, xorijiy tajriba hamda qonunchilikni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ma'muriy javobgarlikka tortish muddatlarini protsessual jihatdan optimallashtirish orqali qonun ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarliligi o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlashdan iborat.


Adabiyotlar va normativ manbalar sharhi

Ma'muriy javobgarlikka tortish muddatlari instituti milliy qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda uning qo'llanilishi bilan bog'liq ayrim protsessual masalalar ushbu sohani ilmiy qayta tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu yo'nalishda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan:

Rossiyalik huquqshunos olimlar **A.V. Agutin** va **V.V. Zaxarova** o'z tadqiqotlarida huquq tizimida muddatlar instituti bilan bog'liq kolliziyalar va ularni qo'llashdagi muammolarni tahlil qilganlar [7]. Ularning fikricha, protsessual muddatlardagi noaniqlik va hisoblashdagi zidliklar amaliyotda qonun ustuvorligi hamda adolat tamoyillarining buzilishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, muddatlarni aniq va amaliyot ehtiyojlariga mos belgilamaslik huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning javobgarlikka tortilmay qolishiga yoki ma'muriy ishlarni yuritish samaradorligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Qozog'istonlik olimlar **A.I. Karipova** va **R.A. Barsukova** esa jinoyat ishi tugatilgandan keyingi bir oylik muddat eskirgan yondashuv ekanini asoslab





berganlar [8]. Ularning xulosalariga ko'ra, muddat o'tishi sababli ishlarning tugatilishi ma'muriy javobgarlikning asosiy maqsadi bo'lgan profilaktika funksiyasini zaiflashtiradi. Shu asosda Qozog'iston amaliyotida mazkur muddat 3 oygacha uzaytirilgan hamda ish sudga yuborilganda muddatning to'xtatib turilishi mexanizmi ham joriy etilgan.

Milliy qonunchilikdagi MJtKning 36-moddasi va 271-modda 7-bandi bilan bog'liq muammolar ham aynan mana shunday protsessual aniqlikning amaliyotdagi darajasiga borib taqaladi. Mahalliy va xorijlik olimlarning qarashlari ko'rsatganidek, muddatlar qonunda belgilangan bo'lsa-da, ularni ish yuritishning real bosqichlariga moslashtirish yetarli bo'lmasa, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining to'liq ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tizimli muammoning kelib chiqishini shunchaki bitta norma bilan emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan quyidagi qonunchilik va amaliyot omillari majmui orqali tushuntirish mumkin:

1.,Moddiy va protsessual normalar nomutanosibli: MJtKning 36-moddasi ma'muriy jazo qo'llash muddatlarini cheklasa, 271-moddasining 7-bandi ushbu muddat o'tganidan keyin ishni avtomatik ravishda tugatish haqidagi imperativ talabni qo'yadi. Bu ikki normaning qat'iyligi amaliyotda moslashuvchanlikka joy qoldirmaydi.

2. Idoralararo protsessual muddatlar kolliziyasi: JPKning 329-moddasiga muvofiq, jinoyatga oid xabarlarni tekshirish uchun 10 sutkagacha muddat belgilangan. Amaliyotda ayrim holatlarda hodisa dastlab jinoyat alomatlari mavjudligi nuqtayi nazaridan tekshiriladi, keyinchalik esa jinoyat tarkibi mavjud emasligi sabab ma'muriy tartibda ko'rib chiqilishi lozim deb topiladi. Biroq ushbu dastlabki tekshiruv jarayoniga ketgan vaqt MJtKning 36-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan 1 oylik muddatning sezilarli qismini egallab, ma'muriy javobgarlik choralari o'z vaqtida qo'llash imkoniyatini cheklamoqda.[9]





3. Sud amaliyotidagi majburiyat va vaqt taqchilligi: Oliy sud

Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi 35-son qarori sudlardan ishning barcha holatlarini to'liq va har tomonlama aniqlashni talab etadi.[10] Biroq, qisqa muddat bosimi ostida qolgan sudlar ko'pincha ishning mazmuniga chuqur kirishga emas, balki uni rasmiy muddat o'tganligi sababli tugatishga majbur bo'lmoqda.

4..Raqamli tizim va qonunchilik cheklovlari: Prezidentning 2020-yil 3-sentyabrdagi PQ-4818-son qarori[11] hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi 431-son qarori bilan yo'lga qo'yilgan "E-ma'muriy ish" yagona elektron tizimi[12] hujjat aylanishini sezilarli darajada tezlashtirdi. Ammo, raqamlashtirish tashkiliy muammolarni hal qilsa-da, qonunchilikdagi mavjud muddatlar ziddiyatini moddiy jihatdan bartaraf eta olmaydi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, biz o'rganayotgan masala shunchaki bitta moddadagi nuqson emas, balki moddiy huquq, protsessual muddatlar, sud amaliyoti va raqamli texnologiyalar kesishgan nuqtada yuzaga kelgan yaxlit tizimli muammodir.

Tadqiqot metodologiyasi hamda ilmiy yangiligi

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy usul, tizimli yondashuv, statistik ko'rsatkichlarni sharhlash va amaliyotga yo'naltirilgan huquqiy modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Normativ tahlil MJtKning 36-moddasi, 271-moddasi 7-bandi, JPKning 329-moddasi va Oliy sud Plenumi tushuntirish-larining mazmun-mohiyatini o'rganishga qaratildi. Qiyosiy-huquqiy yondashuv esa Rossiya, Qozog'iston va Belarus davlatlari tajribasida ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlari qanday tuzilganini aniqlash imkonini berdi.

Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi shundaki, mavjud muammo faqat "muddati o'tgan ishlar" statistikasini bayon qilish bilan cheklanmay, balki quyidagi uchta o'zaro bog'liq elementdan iborat yaxlit tizim sifatida tadqiq etildi:





Birinchidan, jinoyatga oid ma'lumotlarni dastlabki baholashning sifati va ularning ma'muriy ish yurituviga ta'siri;

Ikkinchidan, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgandan yoki tugatilgandan keyingi bir oylik maxsus muddatning aniq protsessual hajmga va amaliyot ehtiyojlariga mosligi;

Uchinchidan, 271-moddaning 7-bandi orqali muddat o'tishining ishni majburiy tugatish oqibatiga aylanishidagi huquqiy bo'shliqlar.

Ushbu tizimli yondashuv ma'muriy javobgarlikka tortish muddati masalasini shunchaki texnik-protsessual institut emas, balki javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini amalda ta'minlovchi yoki cheklovchi eng muhim omil sifatida baholashga keng yo'l ochadi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda "ma'muriy javobgarlikka tortish muddati" va "ma'muriy ish yuritishning tashkiliy-protsessual muddati" tushunchalarini qat'iy farqlash zarurligi asoslanadi. Birinchi muddat shaxsni javobgarlikka tortishning qonuniy vaqt chegarasini belgilab, huquqiy aniqlik kafolati hisoblanadi. Ikkinchisi esa vakolatli organlarning ish yuritish bilan bog'liq tashkiliy harakatlarini amalga oshirish muddatini anglatadi. Amaliyotda ushbu ikki muddatning aralashtirilishi tashkiliy kechikishlar oqibatida huquqbuzarning javobgarlikdan chetda qolishiga yoki jabrlanuvchining huquqiy himoyasi zaiflashishiga olib kelmoqda.

MJtKning 36-moddasi va 271-modda 7-bandining amaliy ziddiyati
MJtKning 36-moddasining asosiy maqsadi davlat organlarining shaxsga nisbatan cheklanmagan muddat davomida jazo qo'llashining oldini olishdan iborat. Mazkur institut huquqiy aniqlikni ta'minlash va vakolatli organlarni tezkor harakat qilishga undaydi. Biroq muammo muddatlar institutining o'zida emas, balki ayrim hollarda uning ishni mazmunan ko'rib chiqish imkoniyatini cheklab qo'yayotganidadir.





Amaliyotda bu holat, ayniqsa, jinoyat alomatlari aniq bo'lmagan murojaatlarni dastlabki baholash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, fuqarolar o'rtasidagi nizolar oqibatida tan jarohati yetkazilgan holatlarda qilmishning ma'muriy (MJtK 52-moddasi) yoki jinoiy (JK 104-109-moddalari) ekanini aniqlash sud-tibbiy ekspertiza xulosasiga bog'liq bo'ladi. Ekspertiza tayinlash, davolanish yakunini kutish va qo'shimcha hujjatlarni yig'ish sababli materiallar uzoq vaqt tergovga qadar tekshiruv bosqichida qolib ketadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingach, MJtKning 36-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan bir oylik muddat hisoblana boshlaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu muddat ichida ishni sudga yuborish, taraflarni xabardor qilish hamda ularning sudga kelishini ta'minlash va ishni mazmunan ko'rib chiqishni yakunlash real yuklama sharoitida har doim ham ta'minlanmaydi. Buning oqibatida ma'muriy ishlar ko'pincha muddat o'tib ketgani sababli tugatiladi. Natijada protsessual muddat cheklovi ishning moddiy-huquqiy mohiyatidan ustun kelmoqda.

MJtKning 271-moddasi 7-bandi esa ushbu holatga qat'iy huquqiy oqibat bog'laydi: muddat o'tgach, ish yuritish tugatilishi shart. Shu sabab ayrim hollarda qaror dalillarning yetarliligi yoki qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga emas, balki vaqt omiliga bog'lanib qolmoqda.

Muammoni kuchaytiruvchi omillardan biri – ayrim ishlarni ehtiyotkorlik sabab jinoyat-protsessual tartibga asossiz yo'naltirish amaliyotidir. Jinoyat alomatlari mavjud bo'lmagan holatlarda ham keyinchalik idoralararo e'tirozlarning oldini olish maqsadida jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilinadi. Natijada ma'muriy ish sun'iy ravishda jinoyat-protsessual bosqich bilan bog'lanib, MJtKda nazarda tutilgan qisqa muddatning o'tib ketishiga sabab bo'lmoqda. Holbuki, MJtKning 282-moddasi talabiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish haqidagi qaror faqat kodeksning 52-moddasida nazarda





tutilgan huquqbuzarlik bo'yicha qabul qilinishi mumkin. Qolgan holatlarda esa ma'muriy javobgarlik masalasi bevosita ma'muriy tartibda hal etilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, asosiy masala bir oylik muddatning tezkorlikni ta'minlashdagi samaradorligi bilan ayrim holatlarda javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga ko'rsatayotgan ta'siri o'rtasidagi muvozanatni baholashdan iborat. Muddatlar instituti shaxs huquqlarini himoya qilishga xizmat qilishi bilan birga, materiallarning vakolatli organlar o'rtasida o'z vaqtida yuborilmasligi, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi protsessual kamchiliklar, elektron axborot almashinuvidagi texnik uzilishlar yoki boshqa tashkiliy sabablar tufayli ishning mazmunan ko'rib chiqilmay qolishiga olib kelmasligi kerak.

Bu jarayonda jabrlanuvchi manfaatlari ham e'tibordan chetda qolmaydi. Haqorat, yengil tan jarohati yoki mayda bezorilik kabi huquqbuzarliklar shaxsning sha'ni va xavfsizligiga bevosita ta'sir qiladi. Ish faqat muddat sabab tugatilganda, bu holat jabrlanuvchi tomonidan adolat to'liq ta'minlanmagan vaziyat sifatida baholanishi mumkin.

"E-ma'muriy ish" tizimi hujjatlar aylanishini tezlashtirgan bo'lsa-da, muddatlarni avtomatik nazorat qilish, kechikishlarni aniqlash hamda muddat o'tib ketish xavfi mavjud bo'lgan ishlarni oldindan belgilash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

Xorijiy tajriba va qiyosiy-huquqiy tahlil

Milliy qonunchilikdagi protsessual va tashkiliy muammolarni baholashda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ma'muriy javobgarlikka tortish muddatlari instituti deyarli barcha huquqiy tizimlarda mavjud bo'lib, uning asosiy vazifasi huquqiy aniqlikni ta'minlash, davlatning shaxsni javobgarlikka tortish vakolatini vaqt bilan cheklash hamda fuqaroni uzoq muddat noaniq huquqiy holatda qoldirmaslikdan iborat.





Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, ma'muriy jazo qo'llash muddatlari huquqbuzarlikning xususiyati, ijtimoiy xavfi va dalillarni to'plash murakkabligiga qarab farqlanadi. Bunda quyidagi davlatlar tajribasi alohida ajralib turadi:

Rossiya Federatsiyasi: Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksning 4.5-moddasi 4-qismiga ko'ra, jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan yoki tugatilgan holatda ma'muriy javobgarlikka tortish muddati huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab umumiy tartibda hisoblanadi [13]. Rossiyalik olimlar A.V. Agutin va V.V. Zaxarova o'z tadqiqotlarida huquq tizimidagi muddatlar kolliziyasini kamaytirish uchun mana shunday aniq va barqaror muddatlar zarurligini asoslab berganlar. Ya'ni, Rossiya qonunchiligida O'zbekistondagi kabi ishni sun'iy ravishda qisib qo'yuvchi alohida bir oylik maxsus muddat cheklov sifatida belgilanmagan.

Qozog'iston Respublikasi: Qozog'iston Ma'muriy javobgarlik kodeksning 62-moddasida muddatlar instituti juda batafsil va tizimli tartibga solingan[14]. Ayniqsa, moddaning 6-qismida jinoyat ishi tugatilgan taqdirda, agar shaxs harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari bo'lsa, uni qaror olingan kundan boshlab **uch oy ichida** javobgarlikka tortish mumkinligi belgilangan. Karipova va Barsukova o'z ilmiy ishlarida aynan mana shu 3 oylik muddat ishni sifatli ko'rish va profilaktika funksiyasini ta'minlash uchun eng maqbul muddat ekanini isbotlashgan.

Qozog'iston tajribasida mazkur norma jinoyat ishi qo'zg'atilib, keyinchalik tugatilgan holatlarga nisbatan qo'llanilishi bilan ajralib turadi, bu esa ma'muriy va jinoyat-protsessual yurisdiksiya chegaralarining aniq belgilanganligini ko'rsatadi.

Belarus Respublikasi: Belarus Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 7.6-moddasida jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan yoki tugatilgan holatlarda ma'muriy javobgarlikka tortish uchun **ikki oylik muddat**





belgilangan[15]. Belarus olimlari va amaliyotchilarining ta'kidlashicha, ushbu ikki oylik vaqt oralig'i ish materiallarini to'liq rasmiylashtirish, zarur hollarda qo'shimcha tekshiruv o'tkazish va yangi ekspertizalar tayinlash uchun eng maqbul va yetarli davr hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda jinoyat ishi tugatilgandan keyin ma'muriy yurisdiksiyaga o'tish uchun 2 oydan 3 oygacha maqbul muddat ajratilgan.

O'zbekistonda esa bu muddatning atigi bir oy bilan cheklangani amaliyotda ishning mazmunan to'liq ko'rilishiga to'sqinlik qilmoqda. Natijada, formal vaqt cheklovlariga ulgurish masalasi adolat va ishning asl mohiyatidan ustun kelib qolmoqda.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, muddatlar instituti huquqiy aniqlik va inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Biroq bu yondashuvni milliy tizimga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish maqsadga muvofiq emas. Asosiy masala muddatlarni oddiy uzaytirishda emas, balki ularni javobgarlikka tortish jarayoni hamda davlat organlarining tashkiliy va raqamli ish yuritish tizimi bilan uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

Muammo yechimiga doir ilmiy asoslangan takliflar

Birinchidan, MJtKning 36-moddasi ikkinchi qismini qayta ko'rib chiqish zarur. Jinoyat ishini tugatish yoki uni qo'zg'atishni rad etishdan keyin qo'llaniladigan bir oylik muddat tezkorlikni ta'minlash maqsadida joriy etilgan bo'lsa-da, amaliyotda ishni sudga yuborish, taraflarni sud majlisiga jalb etish hamda ishni mazmunan ko'rib chiqib yakunlash uchun har doim ham yetarli bo'lmayapti. Shu sabab umumiy bir yillik muddat saqlangan holda, jinoyat-protsessual bosqichdan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tgan ishlar uchun alohida ikki oylik muddat belgilash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi hamda Belarus tajribasiga mos





keladi.

Ikkinchidan, “ma’muriy javobgarlikka tortish” va “materiallarni yuborish” muddatlarini alohida tartibga solish lozim. Jinoyat ishini rad etish yoki tugatishdan keyin materiallarni yuborishning aniq muddatlari belgilanishi kerak: darhol ko‘riladigan ishlar bo‘yicha (masalan, ma’muriy qamoq) – **bir sutka ichida**, boshqa hollarda – **3 ish kuni ichida**. Bunda tashkiliy muddatning buzilishi ishni avtomatik tugatishga asos bo‘lmasligi zarur. Aks holda, davlat organining xatosi huquqbuzarning javobgarlikdan qutulib qolishiga sabab bo‘ladi.

Uchinchidan, jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik alomatlarini dastlabki bosqichda ajratishning aniq mezonlarini belgilash talab etiladi. MJtKning 10-moddasiga ko‘ra, ma’muriy javobgarlik faqat qilmishda jinoyat tarkibi bo‘lmagan hollarda qo‘llaniladi. Biroq amaliyotda jinoyat alomatlari bo‘lmagan murojaatlar ham ehtiyotkorlik sabab jinoyat-protsessual tartibga yo‘naltirilmoqda. Natijada MJtK 36-moddasidagi qisqa muddat sun’iy ravishda ishga tushmoqda. Shu bois JPKdagi “jinoyat haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar” tushunchasini MJtK 10-moddasi bilan uyg‘unlashtirish va aniq protsessual mezonlar bilan chegaralash zarur. Jumladan, quyidagicha ta’rif berish mumkin:

*“**Jinoyat haqidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar** – bu jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan qilmishda Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat alomatlari (tarkibi) mavjudligini bevosita ko‘rsatuvchi, MJtKning 10-moddasi doirasidagi ma’muriy huquqbuzarlik alomatlaridan xoli bo‘lgan rasmiy axborotlardir”.*

To‘rtinchidan, Oliy sud Plenumining 35-son qaroriga MJtKning 36-moddasi va 271-moddasi 7-bandini qo‘llash bo‘yicha aniq protsessual tushuntirishlar kiritilishi zarur. Yangi qoidalar amaliyotda bir xil qo‘llanishi uchun Plenum qarorida quyidagi masalalar aniq belgilanishi lozim:





- jinoyat-protsessual bosqichdan o'tgan ishlar uchun taklif etilayotgan ikki oylik muddatning boshlanish va hisoblash tartibi;
- materiallarni sudga asossiz kechiktirib yuborgan yoki qaytargan mansabdor shaxslar javobgarligi mezonlari;
- muddati tugash xavfi mavjud ishlarni sudlarda ustuvor tartibda ko'rib chiqish mexanizmi.

MJtKning 36-moddasi va 271-moddasi 7-bandini takomillashtirish adolat va tezkorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, muddatni ikki oygacha uzaytirish, kechikish uchun mansabdor shaxs javobgarligini belgilash hamda jinoyat va ma'muriy tarkiblarni aniq ajratish har yili minglab ishlarning faqat muddat sababli tugatilishining oldini oladi.

MJtKning 36-moddasi uchun namunaviy konseptual tahrir

Yuqorida bayon etilgan ilmiy asoslar va xorijiy davlatlar (xususan, Belarus) tajribasidan kelib chiqib, milliy qonunchilikdagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida MJtKning 36-moddasining ikkinchi qismini quyidagi mazmundagi namunaviy konseptual tahrirda qabul qilish taklif etiladi:

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida, agar ushbu moddaning [birinchi qismida](#) nazarda tutilgan muddatlar o'tmagan bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab materiallar vakolatli organga kechiktirmasdan yuborilishi shart. Materiallarni yuborish yoki rasmiylashtirish muddatining asossiz buzilishi ishni avtomatik tugatishga asos bo'lmaydi, biroq





mas'ul mansabdor shaxsning javobgarligini ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi.

Ushbu tahrir yakuniy qonunchilik formulasi emas, balki ilmiy-konseptual model sifatida taklif etiladi. Uning asosiy afzalligi shundaki, shaxsning huquqiy aniqlik kafolati saqlanadi va sudlarga materiallarni sifatli ko'rib chiqish uchun yetarli vaqt (30 kun o'rniga 60 kun) yaratiladi. Natijada idoralararo kechikishlar va texnik uzilishlar sabab ishlarning mazmunan ko'rilmay qolishi xavfi kamayadi, shuningdek ijro intizomi kuchayadi. Mazkur model javobgarlikning muqarrarligi va protsessual kafolatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari MJtKning 36-moddasidagi bir oylik muddat jinoyat-protsessual bosqichdan o'tgan ishlarni ko'rib chiqishga yetarli emasligini ko'rsatdi. Mazkur norma 271-moddaning 7-bandi bilan birga qo'llanganda, ishlar qilmish mohiyati bo'yicha emas, shunchaki vaqt o'tgani sababli tugatilishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, muddatlarni real protsessual jarayonlarga moslashtirish zarur. Buning uchun jinoyat alomatlarini dastlabki bosqichda aniq ajratish, materiallarni yuborish va javobgarlikka tortish muddatlarini alohida tartibga solish hamda maxsus muddatni ikki oygacha uzaytirish lozim.

Zero, ma'muriy javobgarlik samaradorligi jazoning og'irligi bilan emas, uning muqarrarligi bilan belgilanadi.“

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. Lexuz: <https://lex.uz/acts/-97664>
2. Sh.M. Mirziyoyev "Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishuvi". <https://president.uz/oz/lists/view/9082>.
3. Агутин А. В., Захарова В. В. Проблемы института сроков исковой давности // Наука. Общество. Государство : электронный научный

Contact: 99 826 99 56



SCIENTIFIC CONFERENCE OPEN PROCEEDINGS

Global Academic Knowledge Repository



журнал. – 2020. – Т. 8, № 4 (32). – С. 139-145. –
<file:///C:/Users/user/Downloads/problems-instituta-srokov-iskovoy-davnosti.pdf> (дата обращения: 20.05.2026).

4. Карипова А. И., Барсукова Р. А. Освобождение от административной ответственности в связи с истечением срока давности в Республике Казахстан [Электронный ресурс]//Международный журнал экспериментального образования.–2017.–№5.–С.61-65.– URL:<https://expeducation.ru/article/view?id=12101>.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. Lexuz: <https://lex.uz/acts/111460>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 30-noyabrdagi 35-son “Sudlar tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori. Lexuz: <https://lex.uz/docs/4116801>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Lexuz: <https://lex.uz/docs/4979896>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi 431-son “Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi qarori. Lexuz: <https://lex.uz/docs/5500086>.
9. **Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях** от 30.12.2001 № 195-ФЗ (ред. от 2026): статья 4.5. – URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/ (дата обращения: 20.05.2026). – Текст: электронный.
10. **Кодекс Республики Казахстан об административных правонарушениях** от 05.07.2014 № 235-V (с изм. и доп.): статья 62. – URL: <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235> (дата обращения: 20.05.2026). – Текст: электронный.
11. **Кодекс Республики Беларусь об административных правонарушениях** от 06.01.2021 № 91-3 (с изм. и доп.): статья 7.6. – URL: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=HK2100091> (дата обращения: 20.05.2026). – Текст : электронный.

Contact: 99 826 99 56